

Soyib Saidovich Raupov
Buxoro davlat universiteti
yurisprudensiya va ijtimoiy-
siyosiy fanlar kafedrası
professori,
tarix fanlari nomzodi

O'QITUVCHILAR SHA'NI VA QADR-QIMMATINING HUQUQIY KAFOLATI

Annotatsiya. Maqolada o'qituvchi, ustoz-muallimlarning jamiyatdagi mavqei masalalari o'rganilib, milliy qadriyatlarimizda ularga bo'lgan hurmat va e'tibor juda yuqori ekanligi Sharq allomalarining qarashlari asosida taxlil qilib beriladi. Hozirda ustoz-muallimlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, Konstitutsiyaviy islohotlar taxlil qilinib, bu islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan ustoz-murabbiylar, o'qituvchilarning o'ziga, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, kasb maxoratlariga ham bog'liqligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz, ustozlarni qadrlash, milliy qadriyat, jadidchilik harakati, pedagog kadrlar attestatsiyasi, o'qituvchining shaxsiy fazilatlariga, o'qituvchining kasbiy fazilatlariga, o'qituvchi mavqei, yangi Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy islohotlar, huquqiy asoslar.

ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ ЧЕСТИ И ДОСТОИНСТВА УЧИТЕЛЕЙ

ААннотация. В данной статье изучен статус учителя в обществе, а также на основе взглядов мыслителей Востока проанализировано глубокое уважение и отношение к ним. Также в данной статье проанализированы реформы, а также Конституционные реформы, проводимые для повышения авторитета учителя, а также показана взаимосвязь эффективности данных реформ с личными и профессиональными качествами преподавателя.

Ключевые слова: учитель, преподаватель, педагог, наставник, ценить наставников, национальная ценность, движение джадидов, аттестация педагогических кадров, личные качества учителя, профессиональные качества учителя, статус учителя, новая Конституция, Конституционные реформы, правовые гарантии.

LEGAL GUARANTEES OF THE HONOR AND DIGNITY OF TEACHERS

Summary: This article includes the ideas of the status of teachers in society, and also analyzes the deep respect and attitude towards them based on the views of Eastern thinkers. Also, this article analyzes the reforms carried out to increase the authority of the teacher, and also shows the relationship between the effectiveness of these reforms and the personal and professional qualities of the teacher. The constitutional reforms are being implemented deriving from the viewpoint of the teachers, due to their professional features.

Key words: teacher, appreciating teachers, national value, the movement of Jadidizm, the attestation of the pedagogical personnel, the private qualities of the teacher, the professional features of the teacher, status of the teacher.

O'qituvchi, muallim — turli yo'nalishdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilar bilan ta'lim tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. Oliy maktab o'qituvchilari «domla» deb yuritiladi, ular «professor-o'qituvchi» tarzida umumlashma nom bilan ham ataladi. Shuningdek, o'qituvchilarga nisbatan «muallim» yoki «pedagog» atamasi ham qo'llaniladi.

O'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta'lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o'choqlarida topilgan tarixiy madaniy obidalar bu o'lkalarda O'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko'rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar o'qituvchilik bilan shug'ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo'lishgan. Rim imperiyasida o'qituvchi imperator nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. O'rta asrlarga kelib, G'arb mamlakatlarida o'qituvchilik bilan, asosan, cherkov xizmatchilari shug'ullanishgan. Shaharlarda dunyoviy maktablar tashkil topgach, hunarmandchilik sexlari va savdogarlar gildiyalari tomonidan taklif etilgan yollanma o'qituvchilar paydo bo'ldi. XVIII – XIX asrlarda boy oilalarda murabbiy, guvernyor singari uy o'qituvchilaridan foydalanish keng yoyildi.

Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o'lkasida ham o'qituvchi eng qadimiy va obro'li kasb hisoblanib, «ustoz» deb e'zozlangan. O'lkaga islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning o'qituvchilari domla deb ataldi. Shuningdek, maktablar alohida shaxslar uyida ham tashkil etilib, ular maktabdor deyilgan. Ta'lim davlatdan ajratilganligi, bolalarning o'qishi, asosan, ota-onalarning ishi hisoblangani uchun ham Turkistonda o'qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanilmagan. Madrasa ko'rgan yoki maktabdan so'ng o'z ustida ishlagan savodli kishi o'qituvchilik bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan.

XIX asrning oxiridan, ya'ni o'lkada ma'rifatchilik harakati paydo bo'lishi bilan O'qituvchining saviyasiga alohida e'tibor beriladigan bo'ldi. Turkistonda an'anaviy yo'sinda o'qitadigan o'qituvchilar bilan birga Yevropa mamlakatlaridan o'zlashtirilgan usul-larda dars beradigan yangi muallimlar ham faoliyat ko'rsata boshladi. Bu hol, ayniqsa, jadidchilik harakati avj olgan kezlarda ancha keng yoyildi. O'qituvchilar saviyasining oshganligi millat ruhiyatida uyg'onish bo'lishiga, taraqqiyotning bir qadar tezlashuviga olib keldi. O'qituvchi oldida turgan vazifalar va uning mavqei jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo'lgan. Sharqona qadriyatlarimizda o'qituvchi doim ulug'lanib kelingan.

Ustozlarni qadrlash haqida so'z ketganda beixtiyor hazrati Mir Alisher Navoiy bobomizning ushbu so'zlari yodimizga tushadi:

***Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqqin ming ganj ila.***

Haqiqatdan ham "ustoz otangdek ulug'" deb ajdodlarimiz bejizga aytishmagan. Chunki ota farzandini dunyoga keltirgan bo'lsa, ustoz unga odamiylikdan saboq bergan. Bir mashhur zotdan nima uchun ustozingizni otangizdan ham ortiq ko'rasiz, deb so'rashganda: Otam meni jismimni tarbiyalab erga tushishimga sabab bo'lgan, ustozim esa ruhimni tarbiyalab ko'kka etishimga sabab bo'ldi, degan ekanlar.

Kishida ilm o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Albatta buning uchun eng avvalo ustoz zarur. Ilm va talab qilishning fazilati naqadar ulug' bo'lsa ilm o'rgatish, ya'ni, ustozlik qilishning fazilati undanda buyukdir.

Bugungi kunga kelib, ayrim xollarda o'zimizning ustozlarimiz, muallimlarimizga nisbatan hurmatimiz, muomalamiz tamoman yuz tuban bo'lib, jaholatga qarab ketmoqda. Hattoki ayrim ota-onalar o'zlarining farzandlarining gapiga quloq solib, ilm nurini tarqatadigan ustozlarini, bilimsizlik botqog'idan qutqarib, ilmi dono qilib qo'ygan muallimlarini ko'ngillarini sindirib ketadilar. Bunday xolatlar ko'p xollarda o'qituvchi obro'siga putur etkazadi. Bundan tashqari, bir necha yil ilgari o'quv yili ibtidosi muallimning yozilmagan yillik ish rejasida paxta mavsumining boshlanishini belgilab berardi. Qahraton qishgacha davom etadigan bu mavsumni o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan birga "yollanma terimchi" sifatida dalada o'tkazar edi. Biroq, shu bilan uning

“yollanmaligiga” yakun yasalmasdi. Qishda bir muddat o‘z kasbi bilan shug‘ullansa-da, shunda ham bir dunyo qog‘ozlaridan ortib, o‘quvchilari uchun vaqt ajratolmay qolardi. Bahor boshlanishi bilan yana dala yumushlariga jalb qilinar edi. Bundan tashqari, obodonlashtirish, qurilish ishlarida ham “dastyorlik” o‘qituvchilarning zimmasida edi. Bu xizmatlari uchun esa arzimagan maosh to‘lanardi. Muallimning obro‘yi, sha‘ni, qadri haminqadar baholangani tufayli, aksariyat o‘qituvchilar boshqa sohalarga o‘tib ketishdi, ayniqsa, erkak o‘qituvchilar tizimni deyarli tark etdi.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan ta‘limga kuchli e‘tibor qaratilib, murabbiy va ustozlarning jamiyatdagi mavqeini ko‘tarishga qaratilgan isloxotlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy maqsad O‘zbekistonning yangi ta‘lim tizimini yaratish, vatanimiz istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, yurt ravnaqi yo‘lida munosib hissa qo‘shuvchi malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi bo‘lib o‘tgan qator yig‘ilishlarda maktab ta‘limini rivojlantirish buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi, ustozlarga yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatish – jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilishi zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, joylarda barcha rahbarlar va mutasaddilar «Butun kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik» shiorini dasturilamal qilib, maktab ta‘limini rivojlantirishga yo‘naltirilgan buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga etakchilik qilishi lozimligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Bugun jamiyatda o‘qituvchilar mavqeini oshirish, ularni majburiy mehnatga jalb qilmaslik, turli imtiyozlar yaratish va moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha huquqiy asoslar yaratilmoqda. Jumladan, Yangi taxrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu masalaga alohida e‘tibor qaratildi. Ma‘lumki, Konstitutsiya – jamiyatdagi munosabatlarni demokratik tarzda tartibga soladigan qomusdir. Uning chinakam demokratik Konstitutsiyaligi shundaki, u eng rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribasi, jahon konstitutsiyaviy amaliyotiga tayanish bilan birga, xalqimiz mehnatini, ya‘ni ruhini, o‘ziga xosligini, uning o‘tmish an‘ana, urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan hamda jamiyatimizdagi mavjud munosabatlarni tartibga solishda qoidalarini mustahkamlab qo‘ygan.

Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta‘lim sifati va o‘qituvchilar sha‘ni va qadr-qimmatini muhofaza etishga alohida e‘tibor qaratilib, bu masalalarga Konstitutsiyaviy maqom berilganligi ayni muddao bo‘ldi. Jumladan, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 52-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”, deb belgilab qo‘yildi.

Mazkur Konstitutsiyaviy normaning mohiyatini teran anglaydigan bo‘lsak, nihoyatda keng qamrovli ma‘no kasb etishini tushunib etamiz. Sababi, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish, munosib avlodni shakllantirish, shu bilan birga xalqimizning ma‘naviy va madaniy salohiyatini yanada boyitishning asosi sifatida o‘qituvchining mehnati ko‘rilmoqda. Bu albatta o‘qituvchilar mehnatini qadrlash, ularni kelajak poydevorini yaratishdagi mashaqqatli xizmatlari e‘zozlanishini ko‘rsatib beradi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 53-moddasida “har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofavza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi”, - deb belgilab qo‘yilgan.

Darhaqiqat, yangiliklar yaratish, uni ommaga havola etish uchun chinakam mehnat va ko‘p vaqt talab etiladi. Binobarin, bu mehnatlar haqiqiy egalarining haq-huquqlari himoya qilinishi, yutuqlar asrab-avaylanishi, intellektual mulk sifatida daromadga yo‘naltirilishi uchun ham mazkur moddaning o‘rni beqiyos. Ma‘lumki, Prezidentimiz tomonidan 2024-yilning 1-fevral kuni “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi 901-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni imzolandi. Ko‘p yillardan buyon kutilgan mazkur qonunda pedagogning huquqlari, sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘lishi qat‘iy belgilab qo‘yildi.

Ushbu qonunning 3-moddasida Pedagogning maqomiga to‘xtanilib, “Ta‘lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta‘lim va tarbiya sohasida

- 10 kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagogdir" deb ko'rsatilgan va "Pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi" - deb ta'kidlangan.

Qonunning 5-moddasi Pedagogning kasbiy faoliyati amalga oshirilishini ta'minlash muammolariga bag'ishlangan bo'lib, ish beruvchi pedagogning o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi va quyidagilar taqiqlanishi ta'kidlanadi:

"pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatish, shuningdek unga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilish;

pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish;

pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni, shu jumladan aholining soliqlar, kommunal to'lovlar, kreditlar va boshqa qarzdorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, bitiruvchilarning bandligi ta'minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish;

pedagogni ishga joylashtirilmagan, ta'lim bilan qamrab olinmagan va profilaktika hisobida turgan voyaga etmaganlar hisobini yuritish hamda ularning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish ishlariga jalb etish;

pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, shu jumladan ish haqidan uning yozma rozilgisiz tovar va xizmatlar uchun mablag' ushlab qolish. "

Qonunning 7-moddasida Pedagogning majburiyatlari ham ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga qat'iy amal qilishi lozimligi ta'kidlangan:

"ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;

o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;

voyaga etmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;

majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart."

Shuni faxr bilan ta'kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bunday islohotlar o'qituvchilar mehnati samaradorligini oshirib, ularning jamiyatdagi mavqeiini oshirmoqda. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev adolatli ta'kidlaganlaridek, "Albatta, bu borada moddiy qo'llab quvvatlash muhim, lekin bu kasbning obro'sini faqat o'qituvchining o'zi fidokorona mehnati, o'z ustida tinimsiz ishlashi, boshqalarga o'rnak bo'lishi bilan amalga oshira oladi."

Darhaqiqat, o'qituvchilik - katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur

tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasi, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustakillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta kurollangan, hakikiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Jamiyatda o'z o'rnini va mavqei bo'lishini istagan har qanday o'qituvchi quyidagi shaxsiy va kasbiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya'ni saxovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma'naviy poklik, qanoatlilik, rostgo'ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshlilik, muloyimlik va boshqalardir.

O'qituvchining kasbiy fazilatlari: o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lish, hunar sirlarini sodda usulda o'rgata olish, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchilik, shogirdlar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo'lish, shaxsiy namuna bo'la olishlik va shu kabilardir.

Bugungi kun o'qituvchisi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlarini va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Binobarin, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan, allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Bu o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy an'analарimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bulmish yosh avlodga chuqur bilim berish o'qituvchilardan yuksak qobiliyat va ishchanlikni talab qiladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida takidlash lozimki. o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini ko'tarishga qaratilgan davlat siyosati yoshlarda milliy qadriyatlarimiz asosida ustoz-murabbiylarga hurmat ruhini tarbiyalash va o'qituvchilarimizning kasbiy hamda shaxsiy sifatlarini takomillashtirish bilan qo'shib olib borilsa ko'zlangan natijaga erishish mumkin.